

TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLAR

Normo'minova Gulhayo Shavkat qizi

Samarqand davlat pedagogika
instituti

Pedagogika kafedrası
assistenti

Orzuqulova Dilnura

Samarqand davlat pedagogika
Instituti

Аннотация

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligi asoslab berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli ta'limni tashkil etish va samarali pedagogik muhit yaratish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, tahlil, ta'lim jarayoni.

Аннотация

В данной работе рассматриваются педагогические условия формирования критического мышления. Обосновывается важность развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа, сравнения и обобщения в

образовательном процессе. Также раскрываются пути развития критического мышления через использование интерактивных методов, проблемного обучения и создание эффективной педагогической среды.

Ключевые слова: критическое мышление, педагогические условия, интерактивные методы, проблемное обучение, самостоятельное мышление, анализ

Annotation

This article discusses the pedagogical conditions for the formation of critical thinking. It highlights the importance of developing students' independent thinking, analytical, comparative, and reasoning skills in the educational process. The paper also presents effective ways to enhance critical thinking through interactive methods, problem-based learning, and the creation of a supportive educational environment.

Keywords: critical thinking, pedagogical conditions, interactive methods, problem-based learning, independent thinking, analysis, educational process.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga yangi va muhim vazifalar qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat bilimga ega, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammoli vaziyatlarni tahlil qila. oladigan va to'g'ri qaror qabul qilishga qodir shaxslarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini to'g'ri yo'naltirish, ularda mustaqil fikr yuritish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolaning intellektual salohiyati shakllanadi, bilishga bo'lgan qiziqishi ortadi va fikrlash faoliyati rivojlanadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish esa ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu shart-sharoitlar ta'lim mazmuni, metodlari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi

hamkorlik, didaktik vositalar hamda ta'lim muhitini o'z ichiga oladi. Shuning uchun mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llashning samarali yo'llarini aniqlashdan iborat. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri shaxsda mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining har bir bosqichi tafakkurning yangi shakllarini, bilish faoliyatining yangi usullarini talab etadi. Axborot oqimlari cheksiz kengaygan, ma'lumotlarning ishonchliligi turlicha bo'lgan bugungi davrda inson faqat tayyor bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasligi, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Shu bois, tanqidiy fikrlash — XXI asr sharoitida ta'lim, fan va madaniyat rivojining poydevoriga aylanmoqda. Tanqidiy fikrlash tushunchasi bugungi kunda pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya kabi fanlarning kesishgan nuqtasida faol tadqiq etilayotgan fundamental kategoriyalardan biridir. Bu tushuncha insonning axborotga ongli, tahliliy yondashuvi, mavjud g'oyalarni baholash, asosli qarorlar qabul qilish va muammolarni hal etishda mantiqiy, dalillangan fikrlash qobiliyatini bildiradi.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi nafaqat ta'lim sifatini oshirishning, balki shaxsni har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol va mas'uliyatli inson sifatida shakllantirishning ham asosiy omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida “shaxsning tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish” strategik maqsad sifatida belgilangan. Bu esa ta'limning barcha bosqichlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nazariy asoslarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish. Tanqidiy fikrlash (critical thinking) kontsepsiyasi falsafa tarixida

qadimdan mavjud bo‘lib, uning asosiy ma‘nosi inson tafakkurining mustaqil va ongli faoliyatini ta‘minlash bilan bog‘liq. Aristotel va Suqrot kabi qadimgi yunon faylasuflari tanqidiy fikrlashni insonni ma‘lumotlar va voqealarni qabul qilishda passiv emas, balki faol yondashishga o‘rgatadigan jarayon sifatida ko‘rgan. Ular fikrni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini tarbiyalashni muhim deb hisoblaganlar. Suqrot metodologiyasi, ya‘ni dialektik usul, tanqidiy fikrlashning dastlabki nazariy bazasi sifatida qaraladi. Ushbu metod shaxsni savollar berishga, javoblarni tahlil qilishga va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi. Aristotel esa mantiq va silsilaviy xulosalar chiqarish orqali tanqidiy fikrlashning intellektual mexanizmlarini aniqladi. O‘rta asrlarda tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi teologik va falsafiy tafakkur bilan uyg‘unlashib, insonning ilmiy va axloqiy qarorlar qabul qilishida mantiqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qildi. XVI–XVIII asrlarda esa tanqidiy fikrlashning ilmiy-nazariy asoslari Renessans va Aqliy yuksalish davrida rivojlana boshladi. Bu davrda faylasuflar, xususan, Fransis Bekon va Dekart, tanqidiy fikrlashni ilmiy metodologiya bilan bog‘lab, empirik dalillar va ratsional tahlil asosida qarorlar qabul qilishni targ‘ib qilganlar. XX asrda tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi pedagogika va psixologiya sohalarida yanada keng qamrovli talqin topdi. J. Dewey tanqidiy fikrlashni shaxsning ijtimoiy muammolarni mustaqil aniqlash va yechim topish qobiliyati sifatida belgiladi. Dewey nazariyasida tanqidiy fikrlash faqat bilimlarni qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, izohlash va ijodiy tatbiq etishga qaratilgan faoliyatdir. Shu tariqa, tanqidiy fikrlash nazariyasi falsafa, psixologiya va pedagogika integratsiyasida shakllangan va zamonaviy ta‘lim jarayonining poydevorini tashkil qiladi. Tanqidiy fikrlashning psixologik asoslari inson tafakkurining kognitiv va metakognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayonlar shaxsning ma‘lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yangi xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash shunchaki bilimni eslab qolishdan iborat emas, balki ma‘lumotlarni faol qayta ishlash, ularni solishtirish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va muammolarni mantiqiy tahlil qilishdan iborat. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi tanqidiy

fikrlashning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Piaget shaxsning fikrlash darajalari rivojlanishini tahlil qilgan va yuqori darajadagi abstrakt mantiqiy tafakkur, ya'ni formal operatsiyalar bosqichi, tanqidiy fikrlashning asosiy psixologik poydevori ekanligini ta'kidlagan. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ularning kognitiv rivojlanish bosqichi bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, metakognitiv nazariyalar (J. Flavell, D. Perkins) tanqidiy fikrlashni o'z fikrini anglash va boshqarish qobiliyati bilan bog'laydi. Metakognitsiya shaxsning o'z fikrlash jarayonini kuzatishi, xatolarini aniqlashi va tuzatishi, qarorlarini qayta ko'rib chiqishi imkonini beradi. Shu bilan birga, metakognitiv qobiliyat tanqidiy fikrlashning samaradorligini oshiradi va shaxsga murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyati ijtimoiy va hissiy komponentlar bilan ham bog'liq. Hissiy intellekt (E. Goleman) va ijtimoiy tafakkur tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular shaxsga fikrlarni konstruktiv muhokama qilish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ijtimoiy muloqotda samarali qatnashish imkonini beradi.

Mazkur maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari atroflicha o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni anglay olishi va asosli xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash – bu o'quvchining faqatgina bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki ularni tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash ko'nikmasidir. Shu boisdan, boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq ushbu ko'nikmalarni shakllantirish zarur hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va samarali pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar sifatida quyidagilar aniqlandi: ta'lim mazmunining muammoli va hayotiy bo'lishi, o'qitish metodlarining interfaol va innovatsion xarakterga ega bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek, dars

jarayonida erkin fikr almashish muhitining yaratilishi. Shuningdek, kichik muammoli matnlar, savol-javob, munozara, aqliy hujum, rol o'ynash kabi metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlik berishi isbotlandi. Maqolada o'qituvchining roli alohida ta'kidlandi. Chunki aynan o'qituvchi dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni fikrlashga yo'naltirish va ularning faolligini oshirish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiradi va ularni kelajakda mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlardan keng foydalanish, o'quvchilar uchun erkin va ijodiy muhit yaratish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi . – Toshkent, 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni . – Toshkent, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim tizimini takomillashtirish va ilm-fan sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar. Toshkent: Ma'naviyat, 2021. B. 34-40
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022. B. 112-118
5. Pardaboyeva, D. G. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shart-sharoitlari.
6. Mamatmurotov, O. K. (2024). Tanqidiy fikrlashning pedagogik aspektlari. CyberLeninka.

7. Iygilikova, U. T. (2025). Technologies for the development of critical thinking in primary school students. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*.
8. “Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari” (2024). ResearchGate ilmiy maqola.
9. “Tanqidiy fikrlash tushunchasining falsafiy va pedagogik talqini” (2024). *Science Research Uzbekistan jurnali*.
10. Abduqodirov, A. (2015). *Kreativ pedagogika: o‘quvchi va talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirishahamiyatga ega*.